

## TARJIMADA BADIY ASARNING IFODAVIY TA'SIRCHANLIGINI SAQLASH JARAYONI

*Chaman Jonuzaqova Murodilla qizi*

*ToshDO'TAU tayanch doktoranti*

Badiiy tarjimada samaradorlik tushunchasi asarlarning mazmunini va uslubini saqlab qolgan holda, o'quvchiga tushunilishi oson, badiiyati go'zal, tili ravon matnni yarata olish bilan chambarchas bog'liq. Badiiy asar tili boshqa uslublardan aynan ifodaviyligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatni tarjimada uzatish tajriba va tilni his qilishni talab qiladi. Shu bilan birga badiiy tarjimaning ifodaviy xususiyatini saqlash uchun bir qancha samarali ko'nikmalarni ko'rib chiqamiz

- Badiiy matn kontekstini to'la anglash, matnning madaniy va tarixiy mohiyatini chuqur tushunish.

- Muallifning mahorati va uslubini saqlashga harakat qilish.

- Asl matnning ma'no, uslub va hissiy ohangini o'z tarjimasida aks ettirish uchun ekvivalent tanlash, leksik birliklardagi dominantlik xususiyatini tahlil qila olish.

- Madaniy adaptatsiyani amalga oshira olish, madaniy elementlarni o'z madaniyatida tushunarli bo'lgan va o'quvchiga aniqroq ta'sir qiladigan tarzda moslashtirish.

- O'z tarjimasini tanqidiy tahlil qila olish.

- Va albatta, ijodkorlik qobiliyatining mavjud bo'lishi. ni talab qiladi. Tarjimon matnni bevosita tarjima qilishdan ko'ra, asl matnning ruhini va hissiyotlarini o'z ifodasida aks ettirish uchun ijodiy yondashuvdan foydalanishi zarur. Bu, ayniqsa, adabiy uslub va poetik elementlarni tarjima qilishda muhimdir.

Bu ko'nikmalar tarjimaning sifatini oshiradi, asarlarning hissiy va madaniy mohiyatini saqlab qolishga yordam beradi.

Badiiy asar tarjimasida ifodaviy ta'sirchanlikni saqlash muallifning hissiyotlari va fikrlarini aniq yetqazishni o'z ichiga oladi. Tarjimon, asarning hissiy ohangini saqlab qolish uchun so'z tanlashda ehtiyot bo'lishi lozim. Bu, o'quvchida asarning asl muallifi tomonidan berilgan ta'sirni, o'ziga xosligini his qilish imkonini beradi. Badiiy asar tarjimasida ifodaviy ta'sirchanlikni saqlash, tarjimonning mahorati va tajribasiga bog'liq. Har bir tarjima o'ziga xos bo'lib, muallifning asariga yangi hayot bag'ishlaydi.

O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan badiiy asarlar ichida "O'tkan kunlar" ("Days Gone By") tarjima jarayonining murakkabligi bilan ajralib turadi. Asar bir necha tarjimonlar tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan bo'lib, har bir tarjima ifodaviy ta'sirni saqlash borasida aloda uslubga ega. Shunday tarjimalardan parchalarni ko'rib chiqamiz:

“Bu ikki kishining bittasi **gavdaga kichik**, yuzga to‘la, ozroqqina soqol-murtlik, yigirma besh yoshlar chamaliq bir yigit bo‘lib, **Marg‘ilonning boylaridan** Ziyo shohichi deganning Rahmat otliq o‘g‘lidir, **ikkinchisi: uzun bo‘ylik**, qora **cho‘tir** yuzlik, **chag‘ir** ko‘zlik, **chuvoq** soqol, o‘ttuz besh yoshlarda bo‘lg‘an ko‘rimsiz bir kishi edi.”<sup>1</sup>

Yuqoridagi misolda tashqi qiyofani aks ettiruvchi ifodaviy tasvirlar munosib ekvivalent topishni qiyinlashtiradi. Chuvoq, cho‘tir, chag‘ir sifatlari bugungi o‘zbek so‘zlovchisi uchun kam qo‘llanilgani holda, ularda badiiylik, davr muhitini aks ettirish sifatlari ham yuklanadi. Karol Ermakova bu parchani quyidagicha tarjima qiladi:

“One of them - a young man, about twenty - five years old, **shortish**, round - faced, with a sparse beard and moustache - was the son of Ziya - shakhichi, **a very well – to – do man from Margilan**. He went by the name Rakhmat. The second was about thirty - five years old, **lanky**, his dark face **disfigured by pockmarks**. With his **flinty** eyes and **dishevelled** beard, he made a most unpleasant impression.”

Tarjimon ifodaviy vositalar uchun ekvivalent tanlashda to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilishga emas, balki, davrga xos ohangni berishga urinadi. Jumladan, Marg‘ilonning boylaridan ifodasini one of the rich people from Margilan deb emas, a very well – to – do man from Margilan deb beradi. Bu ifoda o‘quvchida davr ruhiyatini tarjima uslubi orqali qayta jonlantirish imkonini beradi. Tarjimon so‘zlashuvda juda faol bo‘lmagan ifodalarni qo‘llasada, ular o‘quvchiga tushinish uchun ham murakkablik tug‘dirmaydi. Lanky, disfigured by pockmarks, flinty eyes, dishevelled beard tasvirlarida ham shuni sezishingiz mumkin.

Bu misollar badiiy tarjimada ta'sirchanlikni saqlash, tilning nafaqat lug‘aviy, balki tarixiy xususiyatlarini ham tushunishning qanchalik muhimligini ko‘rsatadi.

Badiiy tarjimada badiiy uslubni qayta jonlantirish uchun tarjimonda ijodkorlik qobiliyati bo‘lishi lozimligini ta‘kidlagan edik. Adabiyotimizda shunday tarjimonlar borki, ular avvalambor kuchlli yozuvchi, shoirlardir. Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Zulfiyaxon, Oybek o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan tarjimon va shoir va shoirlar bo‘lib, ular ko‘plab xorijiy asarlarni o‘zbek tiliga o‘girishda muvaffaqiyat qozongan. Bu tarjimonlar o‘z asarlarida nafaqat tilni, balki madaniyatni ham aks ettirishga harakat qilgan.

Bugun badiiy tarjima sohasida nazariy va amaliy qo‘llanmalar ko‘paygani bilan birga, badiiy tarjima jarayonida zamonaviy texnologiyalarning o‘rni ham mavjud. Bu ahamiyat tarjimaning texnik jarayonidan tortib, tarjima adekvatligiga yordam beruvchi vositalarni, ma‘lumotlarni to‘plash bilan bog‘liq. Adabiyotda nafaqat taomillar turli texnik matnlardan farq qiladi, balki mualliflar, davr, janrlar va badiiy shakllar ham

---

<sup>1</sup> Ulug‘bek Yo‘ldoshev Ravshanbekovich. *Usage of exercises in teaching literary translation*. Thematics journal of English language teaching. ISSN 2231- 4873. Vol 5. 2021. P 50-51

farqlidir.<sup>2</sup> Shunday murakkab uslubiy tuzilishga ega bo'lsada badiiy matnlar tarjimasida ham texnik vositalarni qo'llash mumkin. Badiiy tarjima jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish kengaymoqda. Bu, turli platformalarda tarjimalar uchun ishonchli materiallarni yaratishni o'z ichiga oladi.

O`rinli foydalanilganda, sun'iy intellekt va boshqa zamonaviy texnologiyalar badiiy tarjima jarayonini yanada samarali va tezkor qilishda yordam bera olishi mumkin. Bu vositalar tarjima jarayonini sifatli va tez bajarilishida ko`mak beradi va badiiy tarjimaning zamonaviy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatib, tarjimonlarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ergash Ochilov. Badiiy tarjima masalalari. T. 2014
2. Ulug'bek Yo'ldoshev Ravshanbekovich. Usage of exercises in teaching literary translation. Thematics journal of English language teaching. ISSN 2231- 4873. Vol 5. 2021
3. James Hadley. Literary machine translation: Are the computers coming for our jobs? 2020.

---

<sup>2</sup> James Hadley. Literary machine translation: Are the computers coming for our jobs? 2020. P 15